

**“BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VATANPARVARLIKNI MUZEY
PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI MISOLIDA)”****Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich***Namangan davlat pedagogika instituti**Pedagogika va psixologiya kafedrasining o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasida istiqbol tufayli barcha sohalarida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya tizimini ham qamrab olgan. Keyingi yillarda Prezidentimizning e'tibori bilan mamlakatimizda muzeylarga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Tarixiy, madaniy merosimiz, ulug' ajdodlarimiz ibratli hayot yo'li bilan yosh avlodni yanada kengroq tanishtirishda qilingan ezgu ishlardan yana biri bo'lajak o'qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzeylarga bo'lgan e'tiborni alohida e'tirof etishdir.

Davlatimiz rahbarining muzeylar faoliyatini yaxshilashga, bu tarixiy-madaniy maskanlarning xalqimiz hayotidagi o'rniga e'tibor qaratayotgani bejiz emas. Tarixini bilmagan avlod bugungi ishlarni to'g'ri baholamaydi, kelajakni aniq tassavur etmaydi. Shu ma'noda muzeylar tariximizni, kechagi kunimiz xaqqoniy aks ettiruvchi ko'zgudir.

Muzeylar - madaniy-tarixiy va tabiiy-ilmiy qadriyatlarni mushohada qilishga mo'ljallangan ijtimoiy axborot institutini o'zida namoyon etadi. Ular kerakli ashyolarini axborot vositasi sifatida muhofaza qilish, to'plash va tarqatish, jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiluvchi ixtisoslashtirilgan madaniy-ma'rifiy muassasalar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda muzeylar faoliyatini takomillashtirish borasida qilingan ezgu sa'y-harakatlar xalqimiz, ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, ona Vatanga mehr-muhabbat ruhida kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo'li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o'rnini muhim. Muzeylar tariximizni o'rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to'g'ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

Respublikamizning boshqa joylardan, ayniqsa chet mamlakatlardan kelayotgan sayyohlar ham yurtimiz tarixini o'rganish, xalqimiz hayoti bilan chuqurroq tanishish maqsadida albatta muzeylarimizga kiradi. Muzeylar qanchalik ko'p va boy bo'lsa, boshqalar ham bizni yanada yaxshiroq biladi. Shuning uchun har bitta hududning o'z muzeyi bo'lishi kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lganidan keyin uning xalqi ham madaniyatli, ma'naviyatli bo'lishi uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Prezidentimiz tashabbusi bilan 10 yillik davlat dasturini qabul qilinganligi, ya'ni 2017-2027-yillar davomida yurtimizdagi barcha muzeylarni rekonstruksiya

qilish, qayta ta'mirlash va ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash aynan madaniyat sohasidagi bugungi kun dolzarb masalalaridan biri edi. Yuksak e'tibor tufayli ko'plab muzeylar bunyod etildi, mavjudlarining ishi esa zamon talablari darajasida yo'lga qo'yilib, muzey-qo'riqxonalar tashkil qilindi. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi o'nlab maskanlar barpo etilgani va Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ochiq osmon ostidagi muzeylar qaytadan ta'mirlangani fikrimiz tasdig'idir.

Muzeylar ma'naviy yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Saqlanayotgan tarixiy ashyolar, nodir qo'lyozmalar, hujjatlar avlodlarga tarixdan, ajdodlarimiz hayoti, yuksak ma'naviyatidan hikoya qiladi. Bu esa yoshlar qalbida ota-bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat, e'zoz va muhabbat tuyg'usini uyg'otish bilan birga, ularda shu aziz Vatanga munosib farzand bo'lish tuyg'usini ham shakllantira oladigan maskandir. Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lgan muzeylar yosh avlodga xalqimizning qadimiy va boy tarixi, o'ziga xos madaniyati, istiqlol g'oyalarini yana-da teran anglashga ko'maklashmoqda.

Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

"Muzey pedagogikasi" atamasini birinchi bo'lib G.Froydentalning "Muzey - xalq ta'limi - maktab" (1931) kitobida qo'llagan bo'lib, unda muallif dastlab muzey va maktab o'rtasidagi farqning mohiyatini va ularning imkoniyatlari chegaralarini aniqlab olish kerakligini va shundan keyingina birgalikdagi ishlarni rejalashtirish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek maktab o'quvchilari bilan ishlash uslubi, shu jumladan, talabalarni muzeyga tashrif buyurishga tayyorlash, keyin olingan bilim va taassurotlarni mustahkamlash tasvirlangan.

Ma'lumki, har bir fan asosi u yoki bu ijtimoiy davrning muhim voqealari bilan bog'lab o'rganilganda, adabiyot, san'at, tarixiy voqealar o'sha davrdagi muhim voqealar, adabiyot va san'at namoyondalarining o'z zamonasida tutgan o'rni, kiritgan yangiligi uning ijtimoiy hayot bilan bir qatorda rivojlanib, taraqqiy etganligi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Shunga ko'ra, maktab o'qituvchilari va muzey xodimlari faoliyatida o'zaro aloqadorlikni tashkil etishning o'ziga xos didaktik talablari, yo'nalishlari, tamoyillari va imkoniyatlari mavjud bo'lib, bular pedagogikadagi an'anaviy metodikaga qaraganda innovatsion xarakter kasb etadi. Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, muzey muhitida bolalar tarbiyalanadi, ya'ni estetik idrok etish, muzey madaniyati, badiiy did shakllanishi asosida tarbiya beriladi. Ijodkor shaxs kamolotga erishib rivojlanadi, shuningdek, muzey yodgorliklarini ko'rish, eshitish, ma'lumot olish orqali bilish (ta'lim olish) faoliyati shakllanadi. Demak, muzey va maktablar sharoitida pedagogik faoliyat - ta'lim-tarbiya va rivojlanishning yaxlit majmui bo'lib, shaxsni estetik tarbiyalash, bilim berish va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi muzey va ta'lim jarayonini o'zaro aloqadorlikda olib borishda, o'quvchilarni muzeylar vositasida ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, o'z metodikasiga ega pedagog kadrlarni hamda

ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi muhim sohalarni takomillashtirishda innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

Xulosa. Ma'naviyatli odam o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Uni shakllantirish, tarbiyalash va yetuklik darajasiga ko'tarish lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan bo'lajak o'qituvchilarda Vatandarparvarlikni, ma'naviyatimizni barkamol etishda muzey pedagogikasi yoki muzeylarning katta sharaflari va mas'uliyatli o'rni bor. Ular xalqimiz, xususan beg'ubor yosh qalblarga ma'rifat, poklik, chin insoniylik, mehnatsevarlik urug'larini ekishlari lozim. Toki bu qalblar imon nuri bilan, mustaqil ozod diyorimizga chin sadoqat nuri bilan munavvar bo'lsin. Yurtimizda yoshlarni xalqimizning bebaho madaniy merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, ilm-fan yodgorliklari, san'at asarlari bilan yaqindan tanishtirish, ularda Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat tuyg'usini mustahkamlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Fan va madaniyatni rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yoshlarda vatandarparvarlik, tariximiz va buyuk ajdodlarimiz merosi bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirish maqsadida Muzeylar haftaligi o'tkazilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad bo'lajak o'qituvchilarni Vatandarparvarlik ruhida tarbiyalash, muzey pedagogikasi vositasida tafakkurni boyitish, rivojlantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // <http://strategy.regulation.gov.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 1994-yil 24-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni // Xalq so'zi, 1998-yil 13-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda qabul qilingan «2017-2027-yillarda Davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 975-sonli Qarori.
5. Shaxnoza Kasimova «Muzey pedagogikasi» O'quv qo'llanma. T- 2022.
6. N.M.O'rinoval, K.I.Marayimova «Muzey pedagogikasi» darslik. F - 2023.
7. internet ma'lumotlari.